**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI AKADEMIYASI**

100102, Toshkent shahri, Yangihayot tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy. Tel: 71 258-55-33. Fax: 71 258-56-57

**2022-yil "06" 09** **36/13-1552-son**

**O'zbekiston Respublikasi**
**Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri**
**A.H.Toshkulovga**

**Hurmatli Abdukodir Hamidovich,**

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-sonli farmoyishi bilan tasdiqlangan "2022-yilda Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik tadbirlar rejasi"ga asosan FVV Akademiyasida 2022-yilning 28-sentabr kuni soat 10:00 da **"Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion yondashuv, ilmiy ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar"** mavzusida IV Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumani o'tkazilishi rejalashtirilgan.

Mazkur anjumanda hayotiy faoliyat xavfsizligi yo'nalishida respublikamizdagi mutasaddi vazirlik va idoralarning mas'ul xodimlari, oliy va oliy harbiy ta'lim muassasalarining professor-o'qituvchilari, yosh olimlari, iqtidorli talaba, kursantlari hamda O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, Fanlar Akademiyasi Yosh olimlar kengashi faollarining ishtirok etishi mo'ljallanmoqda.

Tadbir doirasida yosh olimlar, tadqiqotchilar va iqtidorli talabalar tomonidan yaratilgan ixtirolar, innovatsion ishlanmalar bo'yicha ma'ruza bilan chiqishlari hamda ularning namoyishini o'tkazish rejalashtirilmoqda.

Shu munosabat bilan Sizdan, mazkur yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumanini yuqori saviyada tashkil etishda quyidagi masalalarda amaliy yordam ko'rsatishingizni so'raymiz:

1) anjumanning ochilish marosimida Vazirlik Ilmiy-tadqiqot va innovatsion faoliyatni rivojlantirish boshqarmasi rahbar xodimining ma'ruza bilan ishtirok etishini;

2) hayot faoliyati xavfsizligi bakalavriat yo'nalishi va magistratura mutaxassisligi bo'yicha kadrlar tayyorlovchi oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilari, yosh olimlari, tadqiqotchilar va iqtidorli talabalar tomonidan maqola, tezis hamda ular tomonidan yaratilgan ixtirolar, innovatsion ishlanmalar bo'yicha ma'ruza bilan chiqishlari masalasida.

Ilmiy-amaliy anjumanda ma'ruza bilan ishtirok etuvchilar to'g'risidagi ma'lumotlar joriy yilning 15-sentabr kuniga qadar xabar berilishi maqsadga muvofiq.

Hamkorlik uchun Akademiya shaxsiy tarkibi nomidan Sizga chuqur minnatdorlik bildiramiz.

*Anjumanning axborot xati ilova qilinmoqda.*
*Ilova: 2 varaqda.*

*Hurmat bilan,*

**Akademiya boshlig'i**
**t.f.f.d., (PhD), professor** **K.Berdiyev**

Ijrochi: S.Sultonov
Tel: +99871 258-86-57, +99890 938-36-02
E-mail: Akademiyafvv@mail.ru
Ijrochi imzosi: ________

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI**
**FAVQULODDA VAZIYATLAR VAZIRLIGI**
**AKADEMIYASI**

**«HAYOTIY FAOLIYAT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHDA INNOVATSION YONDASHUV, ILMIY ISHLANMALAR VA ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR»**
**mavzusidagi IV Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumanining**

# AXBOROT XATI



**Toshkent – 2022 yil**

## HURMATLI MEHMONLAR!

Sizlarni O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasida **2022 yilning 28 sentabr kuni** soat $10^{00}$ da bo'lib o'tadigan **"Hayotiy faoliyat xavfsizligini ta'minlashda innovatsion yondashuv, ilmiy ishlanmalar va zamonaviy texnologiyalar"** mavzusidagi IV Respublika yosh olimlar ilmiy-amaliy anjumaniga taklif etamiz.

Mazkur anjuman – O'zbekiston Respublikasi **Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 7-martdagi 101-F-sonli farmoyishi** bilan tasdiqlangan "2022-yilda Respublika miqyosida o'tkaziladigan ilmiy va ilmiy-texnik anjumanlar Rejasi"ga asosan o'tkaziladi.

## MUHOKAMA QILINADIGAN MASALALAR

Anjuman ishida:

– Respublikamizda favqulodda vaziyatlarni oldini olishda mavjud muammolar va ularning yechimi;

– sohaga yangi raqamli va innovatsion texnologiyalarni qo'llash amaliyotini yanada kuchaytirish;

– ilg'or xorijiy tajriba va ishlanmalar hamda texnologiyalar asosida sohani jadal rivojlantirishni ta'minlash;

– yoshlarni ilmiy-tadqiqot ishlariga keng jalb etish, shuningdek, Respublikamizda hayotiy faoliyat sohasida xavfsizlikni ta'minlash borasida olib borilayotgan islohotlar natijalarini muhokama etish;

Shuningdek, yosh olimlarning ilmiy izlanish natijalari asosida yaratilgan ixtirolar va innovatsion ishlanmalarning namoyishi o'tkaziladi.

## AKADEMIYA MANZILI


100102, Toshkent shahri, Yangihayot tumani,
Do'stlik ko'chasi, 5-uy. e-mail: akademiyafvv@mail.ru
Mo'ljal: Yangihayot tumani hokimligi
Telefon: +(998 71) 258-56-57, +(998 90) 930-36-02


## TAQDIM ETILAYOTGAN MAQOLA VA ANJUMAN MATERIALLARINI RASMIYLASHTIRISH TARTIBI

1. Anjuman materiallari bir nusxada va elektron shakllarda ikkita fayl: tezis (Ashurov_tezis) va talabnoma (Ashurov_talabnoma) ko'rinishida Word formatida Times New Roman, 14 kegl, satrlar oralig'i 1,5 sm, sahifalar chapdan va yuqoridan 2,5 sm, pastdan va o'ngdan 2 sm qoldirilgan holda bo'lishi shart.

2. Birinchi qatorda, sahifaning o'rtasida bosh va qalin harflar bilan maqolaning nomi, 2-qatorda muallifning familiyasi, ismi va otasining ismi, 3-qatorda muallifning ish joyi, lavozimi, ilmiy darajasi va unvoni, 4-qatorda matn yoziladi *(namunaga qarang)*.

3. Asosiy matn satrlar oralig'i 1,5 sm intervalda, satr boshi – 1sm, satrlarni eniga to'g'rilash, so'zlarni boshqa qatorga ko'chirish-avtomatik tarzda bo'lishi lozim.

4. Adabiyotlarning to'liq ro'yxati asosiy matndan so'ng alifbo tartibida ko'rsatilishi lozim.

5. Manba va adabiyotga ishora (ssilka)lar asosiy matn ichida [1] ko'rinishda bo'lishi lozim.

6. Taqdim etilayotgan maqolalar hajmi 3 betdan 6 betgacha bo'lishi mumkin.

7. Anjuman materiallari o'zbek, rus va ingliz tillarida qabul qilinadi.

8. Anjuman materiallari to'plamiga faqat ochiq ma'lumotlar (maqola) kiritiladi. Yopiq ma'lumotlar (maqola) kiritilmaydi.

9. Anjuman ishi yakunida xulosa va takliflar muhokama qilinib, yakuniy tavsiyalar qabul qilinadi.

10. Barcha talablarga javob bergan va tahrir hay'ati ko'rigidan o'tgan maqolalar ilmiy to'plamga kiritiladi va bepul nashr etiladi.

## ANJUMANGA TAKLIF ETILAYOTGAN TASHKILOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi

2. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi

3. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi

4. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi huzuridagi X.Sulaymonova nomidagi Respublika sud ekspertizasi markazi

5. O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Yosh olimlar kengashi

6. O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligi huzuridagi Yoshlar Akademiyasi

7. O'zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi

8. Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

9. Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat texnika universiteti

10. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot-texnologiyalari universiteti

11. Toshkent Davlat transport universiteti

12. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti Milliy tadqiqot universiteti

13. Toshkent shahridagi Turin politexnika universiteti

14. O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universiteti

15. O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlar Akademiyasi

16. O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi

17. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy instituti

18. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti

19. O'zbekiston Respublikasi oliy harbiy aviatsiya bilim yurti

20. O'zbekiston Respublikasi Davlat bojxona qo'mitasi Bojxona instituti

21. O'zbekiston Respublikasi FVV Yong'in xavfsizligi va favqulodda vaziyatlar muammolari ilmiy-tadqiqot instituti

22. Toshkent to'qimachilik va yengil sanoat instituti

23. Toshkent arxitektura va qurilish instituti

24. Samarqand Davlat Arxitektura-qurilish instituti

25. Toshkent kimyo-texnologiya instituti

26. O'zbekiston Respublikasi FVV Akademiyasi Fuqaro muhofazasi instituti

27. Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti

28. Ommaviy-axborot vositalari.



NAMUNA

**MAQOLA NOMI**

**ASHUROV SODIQ SALIMOVICH**
**ilmiy darajasi va unvoni, ish joyi.**

Asosiy matn! Asosiy matn! Asosiy matn!

**Adabiyotlar:**
Muallif. Maqola nomi. Nashr qilingan joyi, nashriyot nomi, nashr qilingan yili, umumiy beti.

**Anjuman qatnashchisi talabnomasining namunasi:**

Tashkilotning to'liq nomi ______________________________

Familiya, ismi, sharifi ______________________________

Lavozimi ______________________________

Maqola mavzusi ______________________________

Elektron pochta manzili ______________________________

Telefon ______________________________

**DIQQAT!**

Anjumanda ishtirok etish uchun tezis va **talabnomalar 2022-yilning 18-sentabr kuniga qadar** qabul qilinadi. Tashkiliy qo'mita maqolalarni tanlab olish huquqiga ega. Maqola va tezislar plagiatga tekshiriladi. To'plamda tahrir hay'ati tomonidan nashrga tavsiya etilgan mualliflarning maqola va tezislari chop etiladi.

**Telefon: +(998 90) 930-36-02**
***(Sultonov Sohib)***
e-mail: akademiyafvv@mail.ru